


*Yanvar – noyabr 2018 yil*


Chakana savdo tovar aylanmasi 2018 yilning yanvar – noyabr oylarida 9825,7 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,8 foizga oshdi. Shundan umumiy ovqatlanish aylanmasi 191,8 mlrd. so'mni va o'tgan yilga nisbatan 104,7 foizni tashkil etdi. Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 9,0 foizni tashkil etdi.

**2018 yil yanvar-noyabr oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati  
(mlrd. so'm, foizda)**



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Samarqand shahrining ulushi 25,5 foizni, Urgut tumani 12,7 foiz, Pastdarg'om tumani 7,6 foiz, Bulung'ur tumani 7,6 foiz va Kattako'rg'on shahri 5,4 foiz chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

### **Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, (foizda)**



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 2621,0 ming so'mni tashkil etdi, 2017 yil yanvar- noyabr oylarida 2155,8 ming so'mni tashkil qilgan edi.

O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Kattaqo'rg'on shahri 6109,9 ming so'm, Samarqand shahri 4700,2 ming so'm va Bulun'gur tumanida 4124,7 ming so'm kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 191799,2 mln. so'mni tashkil etdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiyligi hajmida

**Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi**

Viloyatda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2621,0 ming so'mni va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,7 foizni tashkil etdi. Shundan Samarqand shahri 4700,2 ming so'm va o'tgan yilga nisbatan 100,2 foizni, Kattaqo'rg'on shahri 6109,9 ming so'm va 105,3 foizni, Jomboy tumani 1631,1 ming so'm va 102,7 foizni, Samarqand tumani 2065,2 ming so'm va 98,9 foizni, Urgut tumani 2566,0 ming so'm va o'tgan yilga nisbatan 105,6 foizni tashkil qildi.




<b>Hududlar nomi</b>	<i>Ming so'm</i>	<i>O'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda</i>
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>2621,0</b>	<b>102,7</b>
Samarqand sh.	4700,2	100,2
Kattaqo'rg'on sh.	6109,9	105,3
Bulung'ur	4124,7	105,3
Jomboy	1631,1	102,7
Ishtixon	1705,7	103,3
Kattaqo'rg'on	1524,9	105,0
Narpay	1764,7	104,2
Nurobod	2632,3	104,8
Oqdaryo	2006,4	106,6
Payariq	1552,3	103,6
Pastdarg'om	2172,9	102,3
Paxtachi	2829,9	102,4
Samarqand	2065,2	98,9
Tayloq	1574,0	101,1
Urgut	2566,0	105,6
Qo'shrabot	2669,7	102,4

## KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,5 foizni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 91,0 foizini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik umumiy tovar aylanmasining 6783,2 mlrd. so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 69,0 foizni tashkil etdi.



Kichik korxona va mikrofirmalarning chakana tovar aylanmasi 2162,4 mlrd. so'mni, o'tgan yilga nisbatan 104,1 foizni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 22,0 foizni tashkil etdi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi.**

**Tel: 71-230-85-23**